

**PSIXOLOGIYA SOHASIDA ILMIY-TEKSHIRISH
OLIB BORISHNING O`ZIGA XOSLIGI**

Roziqova Malika Olim qizi

NamDPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qituvchisi

Islomjova Ma'rifat Shuxratjon qizi

Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo`nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani o`qish davomida Psixologiya sohasida ilmiy-tekshirish olib borishning o`ziga xosligi haqidagi ma'lumot hamda bilimga ega bo`lasiz . Psixologiya boshqa fanlar bilan birgalikda yuzaga kelgan , masalan-psixofizioliya, neyropsixologiya, matematik psixologiya va boshqalar. Psixologiya amaliyotning turli sohalari bilan murakkab aloqalarning rivojlanishini tashkiliy, sport psixologiyasi, pedagogik psixologiya va oila psixologiyasi kabilarda kuzatish mumkin.

Kalit so`zlar: ong, zamon psixologiyasi, ongsiz, amaliy psixologiya, ruh, neyropsixologiya, muhandislik, ong fenomeni, sport psixologiyasi.

KIRISH. Psixologiya_ yunoncha so`z bo`lib psyuxe-rux, **jon** logos -fan, ta`limot degan manoni anglatadi. Psixologiya-odam va odamlardan iborat gruhlarning psixikasi va psixik faoliyatining funksiyasi, rivojlanishi va yuzaga kelishi qonunyatlarini o`rganadigan fan hisoblanadi. Psixologiya tushunchasi gumanitar va tabiiy fanlar yondashuvlarini o`zida birlashtiradi. Hozirgi zamon psixologiyasi yaxlit fanning o`zidan emas , mustaqil fan bo`lishga da`vogarlikqiluvchi ilmiy fanlar majmuasidir. Psixologiya fanining assosiy sohalari odamlarning aniq bir faoliyat bilan shug`ullanishidan qatiy nazar, odamlarning xulq-ator psixologiyasini bilish va tushunturib berishda umumiylah ahamiyat kasb etadi. Fanning bu sohalari odam psixologiyasi bilan qiziquvchilarga birday birday zarur bo`lgan bilmlarni berishlari zarur. Ba`zida umumiylah psixologiyadan kelib chiqib , ular «umumiylah psixologiya» atamasi bilan umumlashtiriladi. Umumiylah psixologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalari psixologiya fanining barcha soha va bo`limlarining rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Maxsus yoki nazariy faoliyatning u yoki bu turi bilan mashg`ul odamlar xulq-atvori va psixologiyasini tadqiq etuvchi fanning maxsus yoki amaliy sohalari ham ajratilgan.

ASOSIY QISM. Psixologiya falsafa,tarix ,texnika va pedagogika fanlari bilan uzviy bog`liq. Rus pedagok va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o`z ahamiyatiga ko`ra psixologiya barcha fanlar Ichida birinchi o`rinda turadi , deya takidladi. Psixologiya tamoyillari quyidagicha :1.Determinizm tamoyili;2.Ong va faoliyat birligi tamoyili; 3.psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili. Ong

faoliyatni rejasini , dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakati va faoliyatlarini o`rganish orqali xatti-harakatlardan ko`zlangan maqsadlarga ,muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga imkon yaratadi.Hozirgi zamon psixologiya sohalari 300dan ortiq. A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflaydi : Aniq faoliyat turlarini o`rganuvchi psixologiya sohalari . Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o`rganuvchi psixologiya sohalari . Shaxs va jamiyatga bo`lgan munosabatni o`rganuvchi psixologiya sohalari . Aniq faoliyat turiga ko`ra psixologiyani quyidagi turlari mavjud:

1.Mehnat psixologiyasi-bir necha bo`limlardan tashkil topgan bo`lib bularga: muhandislik psixologiyasi, aviatsiya psixologiyasi, kosmik psixologiyasi.

2.Pedagogik psixologiya-quyidagi bo`limlardan tashkil topgan: ta`lim psixologiyasi tarbiya psixologiyasi, o`qituvchi psixologiyasi.

3.Tibbiyot psixologiyasini quyidagi tarmoqlari mavjud : neyropsixologiya -psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o`rtasidagi nisbatni o`rganuvchi soha hisoblanadi .b)psixofarmakalogiya-dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta`sirini o`rganadi psixoterapeya-bemorni davolash uchun ruhiy ta`sir ko`rsatadigan vositalarni o`rganuvchi soha hisoblanadi.

4.Yuridik psixologiya - quyidagi tarmoqlarni o`z ichiga oladi: sud psixologiyasi, kriminal psixologiya.

5. Rivojlanishning yosh xususiyatini o`rganuvchi sohalariga quyidagilar kiradi : Yosh psixologiyasi-bilish jarayonlarining ontogenezda rivojlanishini o`rganadi. Yosh psixologiyasi ham o`z navbatida quyidagilarga bo`linadi : bolalar psixologiyasi, o`smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi va gerontopsixologiya kabilar. Patopsixologiya-miya faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o`rganadi. Oligofrenopsixologiya-miyaning tug`ma kamchiligi bor bo`limini o`rganadi. Tiflopsixologiya-ko`rishda muammoga ega bo`lgan kishilar faoliyatini o`rganadi . Surdopsixologiya-eshtish faoliyatida jiddiy nuqsoni bo`lgan bolalar rivojlanishini o`rganuvchi soha hisoblanadi. Qiyosiy psixologiya-hayotning filogenetik shakllarini o`rganuvchi soha bo`lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o`xshashlik va farq qiluvchi tomonlari aniqlanadi .[1]

Inson va jamiyat o`rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o`rganuvchi psixologiya sohalariga quyidagilar kiradi: 1.Ijtimoiy psixologiya-uyushgan va uyushmagan ijtimoiy gruhlardagi shaxslararo o`zaro ta`sir jarayonida paydo bo`ladigan psixologik hodisalarni o`ranuvchi sohadir. 2.Differentsial psixologiya-shaxs shakllanishining individual psixologik yo`naltirilganligi kabi xususiyatni o`rganadi. 3.Din psixologiyasi- inson ongiga diniy qarashlarning ta`siri haqida o`rganadi.4. Etnopsixologiya-inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy tuyg`u, milliy xarakter, milliy g`oya, etnik stereotip, ular qonuniyati va yuzaga

kelish xususiyatlarini o`rganadi.5.Boshqaruv psixologiyasi- inson tomonidan boshqarishning psixologik tomonlarini o`rganadi.6.Marketling psixologiyasi-yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda , ishlab chiqarish korxonalari va firmalarni boshqarishni ,ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini o`rganadi . Psixologiya tadbiqiy sohalari: Eksperimental psixologiya-eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni o`ganuvchichi soha. Psixologiya fani falsafa fanidan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqot o`tkazish asosiy rol o`ynagan. Ekstremal psixologiya-insonning o`zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o`rganadi . Psixofiziologiya-insonlarning induvidual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixologiyaning sohasi . Oila psixologiyasi-oiladagi psixik jarayonlarni o`rganuvchi psixologiya sohasi. Parapsixologiya-hozirgi zamon fanining chagarasidan tashqaridagi , tushuntirish qiyin bo`lgan psixik hodisalarni o`rganadi.

Siyosiy psixologiya-jamiyatning siyosiy psixik xususiyatlarini , holat, qonuniyatlar , ta`sirchanlik va ta`sir ko`rsatish jarayonlari kabilarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.[2]. Psixologiya fanida ilmiy tadqiqotlarning integratsiyalashuvi va differensiatsiyalash jaroyoni ro`y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixofiziologiya shaklanadi. Psixologiyaning ko`plab sohalari quyidagi mezonlar bo`yicha bir-biridan farqlamadi:

1.Aniq faoliyat (tibbiyot psixologiyasi, mennat psixologiyasi, san`at psixologiyasi pedagogik psixologiya, sport psixologiyasi shu kabilalar).

2.Rivojlanish (qiyosiy psixologiya, hayvonlar psixologiyasi, bolalar psixologiyasi , rivojlanish psixologiyasi shu kabilarni o`z ichiga oladi).

3.Ijtimoiy umumiylilik (shaxs psixologiyasi, guruh psixologiyasi , sinf psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya va shu kabilalar).Sport psixologiyasi asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta`sir ko`rsatuvchi shart-sharoitni yaratib berishdan iborat.Sohalar bo`yicha faoliyat maqsadiga ko`ra tafovut muhim ahamiyatga ega (yangi bilimlarga ega bo`lish va ualrnii qo`llash): asosiy va amaliy fanlar: tadqiq etish predmetiga ko`ra -ijod psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiya va shu kabilalar .

Psixologiya fani quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

Amaliy psixologiya-fundamental psixologiya ma`lumotlariga tayangan holda o`rganadi. Fundamental psixologiya-ruhiy faoliyat qonunlari , dalillar va mexanizmlarni aniqlaydi. Amaliyotli psixologiya- psixologik bilimlarni amaliyotda qo`llash bilan shug`ullanib keladi. [3] V.A.Mazilovning fikriga ko`r:insонning cihki dunyosini ilmiy psixologiya predmeti deb hisoblash maqsadga muvofiq tarzda bo`ladi.

XULOSA

Psixologiya insонning ruhiyatini o`rganadi, bu esa juda murakkab va ko`p qirrali jarayonlarni o`z ichiga oladi. Insонning fikrlash , hissiyot , xulq-atvor, motivatsiya va

idrok kabi aspektlarni birgalikda tahlil qilish psixologik tadqiqotlarni yanada murakkablashtiradi . Bu esa turli metodologiyalarni qo`llashni talab qiladi. Psixologiya tadqiqotlarida inson albatta ishtirok etadi, shu bois psixologlar tadqiqotlarida axloqiy masalalar mihim ahamiyatga ega .Psixologik holatlar o`zgaruvchan bo`ladi. Tadqiqotchilar o`zaro aloqalarning ijtimoiy madaniy va individual omillarga bog`liq ekanligini hisoba olish kerak. Psixologiyada ilmiy tekshiruvlar olib borishda nazariy asoslar va metodologik yondashuvlar muhim o`rin tutadi. Psixologik ilmiy tadqiqotlar psixologiyaning nafaqat nazariy jihatlarini, balki amaliy masalalarini ham hal qilishga yordam beradi. Masalan , ular yordamida turli kasalliklar, muammolar va stressni bartaraf etishga oid yangi usullar ishlab chiqiladi. Psixologiya fanining predmeti tarix davomida tulicha tushuniladi.Zamonaviy psixologiya predmetini izlash dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya . T 2010
2. P.Ivanov , M.Zufarova Umumiy psixologiya . T 2008
3. J.Xasanboyev ,X. To`raqulov ,M. Xaydarova ,O.Xasanboyeva Pedagogika fanidan izohli lug`at.-T..2008
4. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).
5. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS*, 48(2), 49-51.
6. Roziqova, M. (2024). O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlar tasirida yuzaga keladigan muammolar va ularning oldini olish psixologik xizmatning dolzarb vazifasi sifatida. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 41(1), 95-97.
7. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(1), 92-94.
8. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o ‘quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
9. KO, KZOVZ, & MAXSUS, RB KORREKSION MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETILISHI Roziqova Malika Olim qizi.